

“TASDIQLAYMAN”



O‘zbekiston Respublikasi  
Prezident huzuridagi statistika  
agentligi Direktori

B.A. Begalov

“20” 03 2024- yil

**O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi  
Ichki audit xizmati bosh auditori  
lavozim yo‘riqnomasi (O. Bobojonov)**

1. Ichki audit xizmati bosh auditori funksional vazifalariga muvofiq ma’lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi.

2. Ichki audit xizmati bosh auditori o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi Direktori qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek, ichki audit xizmati nizomiga amal qiladi.

3. Ichki audit xizmati bosh auditori Statistika agentligi umumiy faoliyati natijalariga javobgar hisoblanmaydi va ichki audit xizmatiga tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha audit sohasidagi hujjatlar va takliflar tayyorlaydi.

5. Ichki audit xizmati bosh auditori asosiy maqsadi Agentlikning budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat.

6. Budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, budjet hisobini yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirilishini o‘rganadi.

7. Ichki audit xizmati bosh auditori o‘z faoliyatida bevosita Statistika agentligi direktoriga bo‘ysunadi.

8. Agentlikning moliyalashtirish jarayoniga axborot texnologiyalarini tadbiiq etilishini baholash orqali ulardan foydalanish samaradorligini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

9. Ichki audit xizmati aniqlangan budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari statistikasini yuritadi va ular yuzasidan Agentlik direktorini habardor qilib boradi.

10. Budjet to'g'risidagi qonunchilik bo'yicha o'z vakolatlari doirasida tushuntirish va tavsiyalar beradi.

11. Ichki audit bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib boradi.

12. Agentlik tizimida ichki audit bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi.


13. Agentlikning ichki audit o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Agentlik rahbariga kiritadi.

14. Davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan moliyaviy nazorat va tashqi audit natijalari bo'yicha aniqlangan budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlariga kelgusida yo'l qo'ymaslik va oldini olish bo'yicha takliflar.

15. Budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish bo'yicha tegishli rivojlantirish dasturlarining samaradorlik indikatorlari ijrosi natijalarini tahlil qiladi va baholaydi.

16. Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni kiritib boradi.

**Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini olaman:**

  
(imzo)

Probojonev Dybek Drahman o'g'li  
(ismi, otasining ismi va familiyasi)

\_\_\_\_\_ (sana)